

AMUDARYO QUYI OQIMIDAGI SUG'ORILADIGAN YERLARNING SHO'RLANISH XUSUSIYATLARI VA ULARNI MELIORATIV BAHOLASH

Abdikarimov.A

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida, xususan Kegeyli va Qonliko'l tumanlari misolida sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi va uning hududiy tarqalishi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so'zlari: *sho'rlangan tuproqlar, meliorativ holat, agroekologik baholash, iqlim o'zgarishi, sug'oriladigan yerlar, fizik degradatsiya, tuproq unumdorligi, xlorid-sulfatli sho'rlanish, melioratsiya, Kegeyli tumani, Qonliko'l tumani, agrotexnik tadbirlar.*

Аннотация: *В данной статье с научной точки зрения проанализирован уровень засоления орошаемых земель и его территориальное распространение в условиях Республики Каракалпакстан, в частности на примере Кегейлийского и Канлыккульского районов.*

Ключевые слова: *засоленные почвы, мелиоративное состояние, агроэкологическая оценка, изменение климата, орошаемые земли, физическая деградация, плодородие почв, хлоридно-сульфатное засоление, мелиорация, Кегейлийский район, Канлыккульский район, агротехнические мероприятия.*

Abstract: *In this article, the level of salinity of irrigated lands and its territorial distribution in the conditions of the Republic of Karakalpakstan, in particular, on the example of Kegeyli and Kanlykul districts, were analyzed from a scientific point of view.*

Key words: *saline soils, melioration status, agroecological assessment, climate change, irrigated lands, physical degradation, soil fertility, chloride-sulfate salinization, melioration, Kegeyli district, Kanlykul district, agrotechnical measures.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda qishloq xo'jaligining asosiy muammolaridan biri tuproqlar sho'rlanishi hisoblanadi. Iqlimning o'zgarishi, haroratning keskin ko'tarilishi natijasida qurg'oqchilikning kelib chiqishi sho'rlangan tuproqlar maydonining oshishiga sabab bo'lmoqda. «Hozirgi kunda er yuzining 85% ni sho'rlangan tuproqlar egallagan. Bunda, qurg'oqchil va arid iqlim sharoitida



choʻl va yarimchoʻl mintaqalari tuproqlari shoʻrlanish darajasining ayniqsa yuqoriligi bilan ajralib turadi».

Tuproqning shoʻrlanishi erlarning fizik degradatsiyasiga va ularning qishloq xoʻjaligi aylanmasidan chiqishiga olib keladi. Shoʻrlangan tuproqlar maydonining keng tarqalishi va buning natijasida ekin maydonlarining qisqarishi shoʻrlangan tuproqlarni meliorativ holati nuqtai nazaridan agroekologik baholashni taqozo etadi.

Shu sababli tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, tuproqqa minimal ishlov berish, oʻsimlik qoldiqlari yordamida tuproqlarni himoyalash, oʻgʻitlarni maqbul meʼyor va muddatlarda qoʻllash bilan birga yuqori hamda sifatli hosil olishning ilmiy asoslangan yechimlarini topish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqotlar davomida Qoʻngʻirot tumanida sugʻoriladigan yerlar 38592,0 gektar boʻlib, shundan 36289,4 gektari (94,0 %) turli darajada shoʻrlangan. Shoʻrlanmagan tuproqlar 2302,6 gektarni, yaʼni tuman sugʻoriladigan yerlarining 6 % ni tashkil etadi. Kuchsiz shoʻrlangan tuproqlar tuman sugʻoriladigan yerlarining 14022,9 gektar, yaʼni sugʻoriladigan yerlarining 36,3 % ni, oʻrtacha shoʻrlangan tuproqlar 10734,6 gektar, yaʼni sugʻoriladiganerlarining 27,8 % ni, kuchli shoʻrlangan tuproqlar maydoni 3665,3 gektar, yaʼni sugʻoriladiganerlarining 9,5 % ni, juda kuchli shoʻrlangan tuproqlar 7866,6 gektar, yaʼni sugʻoriladiganerlarining 20,4 % ni tashkil etilishi aniqlangan. Shoʻrlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Tadqiqotimiz davomida Nukus tumanida sugʻoriladigan yerlar 27263,0 gektar boʻlib, shundan 25065,6 gektari (91,9 %) turli darajada shoʻrlanganligi kuzatildi. Shoʻrlanmagan tuproqlar 2197,4 gektarni, yaʼni tuman sugʻoriladigan yerlarining 8,1 % ni tashkil etadi. Kuchsiz shoʻrlangan tuproqlar maydoni 10951,5 gektar, yaʼni sugʻoriladigan yerlarining 40,2 % ni, oʻrtacha shoʻrlangan tuproqlar maydoni 6894,9 gektar, yaʼni sugʻoriladiganerlarining 25,3 % ni, kuchli shoʻrlangan tuproqlar 2962,2 gektar, yaʼni sugʻoriladiganerlarining 10,8 % ni, juda kuchli shoʻrlangan tuproqlar maydoni 4257,0 gektar, yaʼni sugʻoriladiganerlarining 15,6 % ni tashkil etilganiligi aniqlandi. Tumanda kuchsiz shoʻrlangan tuproqlarning shoʻrlanish tipi xlorid-sulfatli va sulfatli.

Kuchli shoʻrlangan tuproqlar koʻproq “Kerder”, “Shortanboy”, “Boyantomir”, “Qizil uy”, “Darsan” va “Nukus” hududlarida tarqalgan. Juda kuchli shoʻrlangan tuproqlar “Kerder”, “Shortanboy”, “Boyantomir”, “Qizil uy”, “Darsan”, “Qoʻtankoʻl” va “Aqterek” hududlarida koʻproq tarqalgan.



To'rtko'l tumanida sug'oriladigan yerlar 26556,0 gektar bo'lib, shundan 22662,6 gektari (85,3 %) turli darajada sho'rlangan. Sho'rlanmagan tuproqlar 3893,4 gektarni, ya'ni tuman sug'oriladigan yerlarining 14,7 % ni tashkil etadi.

Kuchsiz sho'rlangan tuproqlar tuman sug'oriladigan yerlarining 12258,43 gektar, ya'ni sug'oriladigan yerlarning 46,2 % ni, o'rtacha sho'rlangan tuproqlar maydoni 4267,35 gektar, ya'ni sug'oriladiganerlarining 16,1 % ni, kuchli sho'rlangan tuproqlar 2968,4 gektar, ya'ni sug'oriladigan yerlarining 11,2 % ni, juda kuchli sho'rlangan tuproqlar maydoni 3168,5 gektar, ya'ni sug'oriladiganerlarining 11,9 % ni tashkil etilishi kuzatildi. Sho'rlanish tipi, asosan, xlorid-sulfatli va sulfatli. Kuchli sho'rlangan tuproqlar ko'proq “Qurbonov”, “Ya.Ilomonoov”, “Paxtaobod”, “Durdiev”, “Miskin”, “Nurimbetov”, “O'zbekiston” va “Qizilqum” hududlarida tarqalgan. Juda kuchli sho'rlangan tuproqlar ko'proq “Paxtaobod”, “Qurbonov”, “Bo'rdoqichilik”, “Ya.Ilomonoov”, “Miskin”, “Navro'z” va “Qizilqum” hududlarida tarqalgan.

Xulosa Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iro't va To'rtko'l tumanlarida sug'oriladigan yerlarning asosiy qismi turli darajada sho'rlanishga uchragan bo'lib, bu holat hududlarda tuproq unumdorligi va meliorativ holatning barqarorligini ta'minlashda jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Shu sababli, Qo'ng'iro't va To'rtko'l tumanlarida sho'rlanish jarayonlarini kamaytirish va tuproq unumdorligini tiklash maqsadida kompleks meliorativ tadbirlarni, xususan, suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etish, biomeliorativ o'simliklardan foydalanish, hamda drenaj tarmoqlarini rekonstruksiya qilish zarurligi ilmiy asosda aniqlanmoqda. Ushbu chora-tadbirlar tuproqning ekologik-meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo'jalik yerlarining samarali foydalanilishini ta'minlash hamda mintaqaning agroekotizimini barqarorlashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tashkuziev M.M., Karimberdieva A.A., Berdiev T.T., Ochilov S.K. Sovremennoe sostoyanie degradirovannix pochv Priaral'ya i texnologii uluchsheniya ix plodorodiya. Upravlenie zemel'nimi resursami i ix otsenka: novie podxodi i innovatsionnie resheniya: sbornik statey: Respublikanskaya nauchno-prakticheskaya konferentsiya. Moskva-Tashkent:, 2019. – S. 249-252.

2. Turapov I., Kurvantaev R., Piraxunov A., Kutbiddinova O. Vodnie i fizicheskie svoystva oroshaemix pochv Respubliki Karakalpakstan. Qishloq xo'jaligi taraqqiyotining ilmiy asoslari. Toshkent. - 2001. -S. 124-125



3. Tursunov A.A. Izmenenie pochvennogo pokrova sovremennoy del'ti Amudar'i pod vliyaniem opustinivaniya.: Avtoref. dis. ... kand. s/x. nauk. - T.: 1987. – 22.

4. Tursunov L.T., Abdullaev S. Vliyanie sovremennogo antropogennogo opustinivaniya na pochvenno-meliorativnix usloviyax nizov'ev Amudar'i. Materiali nauchno-prakticheskoy konferentsii: Pochvi Uzbekistana i zemel'nie resursi: ratsional'noe ispol'zovanie i zashita ix. 14-16 maya, Tashkent, 2008, s. 49-52/

